



KICHIK GURUHLARDA SO‘ZNING SEMANTIK TARKIBINI O‘QITISH USULLARI

Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi

*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta‘limi fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tilida so‘z va uning tarkibini o‘rganishda grammatikaning ahamiyati hamda so‘zning semantik tarkibini kichik guruhlarda o‘qitishning samaradorligi yuzasidan o‘tkazilgan usullar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kichik guruhlarda ishlash, semantika, “Davra suhbat”, “Loyiha”, “Bahs – munozara” metodlari va “Senda ko‘ryapman” usuli.

Semantika til birliklarining semantik ma‘nosini va uning tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi hisoblanadi. Semantika, tilning ma‘noni tahlil qilish, so‘zlarni, iboralarni va nutqni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy soha hisoblanadi. Semantika, insonlar o‘rtasidagi ma‘noviy aloqalarni tushuntirish, til va nutq tizimlarini analiz qilish, va so‘zlarning o‘zgaruvchanligini o‘rganish uchun muhimdir.

Semantik tahlil o‘rganish vositasi sifatida ishlatiladi¹.

Fanlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llar ekanmiz, bunda har xil metod va usullardan foydalanamiz. Bunday jarayonlarda ulardan foydalanish har doim ham o‘zining afzallik tomonlarini ko‘rsatmaydi. Ishlash davomida biz pedagoglar ularning qaysi doiraga to‘g‘ri kelishi yoki mos emasligining guvohi bo‘lamiz. Quyida esa shunday metodlar haqidagi ma‘lumotlarni ko‘rib chiqamiz.

Ulardan biri “Kichik guruhlarda ishlash” metodidir. Bu metodning yutuqlari bilan birgalikda kamchiliklarini ham ko‘rishimiz mumkin.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining yutuqlari:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashtiradi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha o‘quvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari:

- barcha talabalarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo salbiy raqobatlar va nizolar yuzaga kelishi mumkin.²

“**Davra suhbat**” **metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan o‘quvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. “Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni

¹ <https://uz.m.wikipedia.org>

² Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: “Moliya”, 2003, 73-b.



doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir talabani bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir o‘quvchi fikrlarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan talabani barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.³

Topshiriq. O‘quvchilar 6 tadan iborat bo‘lgan 3 ta kichik guruhlariga bo‘linib olishadi. 1- guruh ketma-ketlikda ma‘nodosh qo‘shimchalarga, 2 - guruh shakldosh qo‘shimchalarga, 3 - guruh esa zid ma‘noli qo‘shimchalarga misollar aytishadi. To‘xtab qolgan guruh o‘yindan chiqariladi va oxirida qolgan guruh a‘zolari g‘oliblikni qo‘lga kiritadi.

Masalan, ma‘nodosh qo‘shimchalar: -li; -ser; -dor; -ba shakldosh qo‘shimchalar: -in – o‘zlik nisbati, mavhum nisbat, ot yasovchi qo‘shimcha, *kiyindi, ko‘rindi, qishin-yozin*; -ma – fe‘lning bo‘lishsizlik shaklini hosil qiluvchi, sifat yasovchi hamda ot yasovchi qo‘shimcha hisoblanadi, *yozma, qaynatma sho‘rva, tortma(uy jihozi)*.

“Davra suhbat” metodining afzalliklari:

- o‘tilgan mavzularni yaxshi eslab qolishiga yordam beradi;
- o‘quvchilarning to‘liq ishtirok etishini ta‘minlaydi;
- har bir o‘quvchi mas‘uliyatni his qilgan holda yaxshi natija ko‘rsatish va guruhni ortga tortmaslik uchun faol bo‘lishga harakat qiladi;
- o‘z fikrini ochiq ifodalash uchun imkoniyat yaratiladi.

“Senda ko‘ryapman” usuli. Ushbu usulni qo‘llashda 3ta kichik guruh o‘z ichida 1 tadan vakillarini doskaga chiqarishadi va chiqarilgan o‘quvchilar boshqa guruhlar qarshisiga turib olishadi. Natijada haqqoniylik asosida baholashga erishish mumkin.

Topshiriq. Tanlangan o‘quvchilarning peshona qismida ko‘rsatilgan qo‘shimchalarga ta‘rif bering. Tanlangan o‘quvchi qaysi ta‘rifdan keyin qo‘shimchani topsa, o‘sha o‘quvchi bilan o‘rin almashadi. Shu tariqa usul almashinib davom ettiriladi.

³ Tojiboyeva D, Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. -Toshkent. “Aloqachi”, 2009, 357-b.



Namuna: ushbu qo'shimcha shakldosh qo'shimcha, fe'lining ham o'zlik ham mavhum nisbatiga mansub, otdan ot yasovchi qo'shimcha bo'lib ham keloladi.

Javobi: -in qo'shimchasi.

Ushbu usulning afzallik tomonlari shundaki, birinchidan, o'quvchilar o'rgangan bilimlarini chuqur eslaydilar, tezroq va aniqroq javob berishga harakat qiladilar va o'z tengdoshlariga hurmat hissini shakllantirib, o'zini-o'zi baholashni o'rganadilar.

“Bahs-munozara” metodi - biror mavzu bo'yicha o'quvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini talabalarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir talabani munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda o'quvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha o'quvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmaslik;
- o'zaro hurmat.

Topshiriq. Kichik guruhlariga bo'lingan o'quvchilar davra holatida o'tirib olgan bo'lishadi. Bunda aloqa ta'siri yanada kuchayadi. O'qituvchi tomonidan noto'g'ri ma'lumot o'rtaga tashlanadi va o'quvchilardan bu ma'lumot to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi va u nima uchun to'g'ri yoki nima uchun noto'g'ri ekanligini isbotlovchi dalillar so'raladi.

Namuna. Shakldosh qo'shimchalar yozilishi jihatidan ham, aytilishi jihatidan ham, ma'no jihatidan ham bir xil bo'ladi. Shuning uchun ham ular shakldosh qo'shimchalar deyiladi. Xo'sh, bu ma'lumot to'g'rimi yoki noto'g'ri isbotlang. To'g'ri javoblar va dalillar soni hisonlab boriladi va eng ko'p to'g'ri javob bergan o'quvchilar guruhi g'olib deb topiladi.

“Loyiha” metodi - bu o'quvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda o'quvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhliy bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda o'quvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. O'quvchilar nuqtai nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u



o'quvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, talabalar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak⁴.

Ushbu metoddan so'zning semantic tarkibi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lgandan so'ng, ya'ni unga oid har qanday qoidalarni tushunganidan so'ng mustahkamlash darsida foydalanish ma'qul hisoblanadi. Negaki, bu metoddan foydalanganda, asosiy rol ni o'qituvchi emas, balki o'quvchilar egallaydi. Hatto, baholash qismida ham guruhlar bir-birlarining ishlariga loyiq baho berishlari orqali amalga oshiriladi. Bu metodni amalga oshirishdan bir dars avval o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib olgan bo'lishadi va o'zlari uchun tegishli bo'lgan vazifalarni avvaldan olib ketishadi. Kelgusi darsda esa tayyorlab kelingan topshiriqlar amalda sinab ko'riladi va bajariladi.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, so'zning semantik tarkibini o'qitishda turli metod va usullardan foydalanish samaralidir. So'zning semantik tarkibini o'qitishga qaratilgan samarali usullardan foydalanish o'quvchilarda mushohada, mulohazakorlikni orttiradi. Shu bilan birga o'quvchining darsga qiziqishi kuchayadi, yangi motivatsiyalar asosida o'z fikrlarini bildira olish ishonchi haydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: "Moliya", 2003, 73-b.
2. Mavlonova R., To'rayeva O. Pedagogika. -Toshkent. O'qituvchi, 2001, 108-b
3. Tojiboyeva D, Yo'ldoshev A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. - Toshkent. "Aloqachi", 2009, 357-b.

INTERNET SAYTLARI:

1. <https://uz.m.wikipedia.org>

⁴ Mavlonova R., To'rayeva O. Pedagogika. -Toshkent. O'qituvchi, 2001, 108-b